



**RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ
ТЕХНОЛОГИИ**

Elektron ilmiy jurnal | Electronic scientific journal

MUASSIS | FOUNDER

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Tashkent State University of Economics**

TAHRIR KENGASHI RAISI | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – t.f.d., professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – doctor of technical sciences, professor

BOSH MUHARRIR | EDITOR-IN-CHIEF

Abdullaev Munis Kurbonovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent

Abdullaev Munis Kurbonovich – PhD, docent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI | DEPUTY CHIEF EDITOR

Vafoev Boburjon Rasulovich – i.f.n., dotsent

Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

MA’SUL KOTIB | EXECUTIVE SECRETARY

L.A. Ablazov, I. Kungratov | L.A. Ablazov, I. Kungratov

VEB-ADMINISTRATOR | WEBMASTERS:

N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Maxmudov | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

TAHRIRIYAT A’ZOLARI | EDITORIAL BOARD

S.S. Gulyamov – i.f.d., akademik.

B.A. Begalov – i.f.d., professor.

M.P. Eshov – i.f.d., professor.

O.Q. Abduraxmonov – i.f.d., dotsent.

K.B. Axmedjanov – i.f.d., professor.

I.M. Alimardonov – i.f.d., dotsent.

R. Salixodjaev – i.f.b.f.d. (PhD).

X. Amonov (Chexiya) – Professor

Karina Tatek Banetti (Chexiya) – Professor

O. Abdurazzakov (Germaniya) – Professor

Eko Shri Margianti (Indoneziya) – Professor

D.M. Nazarov (Rossiya) – Professor

N.M. Surnina (Rossiya) – Professor

Mark Rozenbaum (AQSh) – Professor

Abdul-Rashid (Afg‘oniston) – PhD.

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr) – PhD.

B. Saidov (AQSh). – PhD.

U. Axmedov (Daniya Qirolligi) – PhD.

A.A. Ismailov – i.f.d., professor.

I.E. Jukovskaya – i.f.d., professor.

T.S. Qo‘chqorov – i.f.d., professor.

R.A. Dadabaeva – i.f.n., dotsent.

Sh.I. Xashimxodjaev – i.f.n., dotsent.

A.A. Abidov – t.f.n., dotsent.

I.M. Abdullaeva – i.f.n., dotsent.

N.B. Abdusalomova – i.f.d., dotsent.

Sh.S. Egamberdiev – i.f.b.f.d. (PhD).

R.X. Alimov – i.f.d., professor.

A.U. Qobilov – i.f.n., dotsent.

R.X. Nasimov – t.f.b.f.d. (PhD).

S.S. Qulmatova – i.f.b.f.d. (PhD).

UDK: 330.34:005.44(575.1)(08)

KBK: 65.011(50’)ya43

G 55

Raqamli biznes moliyaviy boshqaruvida «yashil» korporativ hisoblarni qabul qilishning asosiy afzalliklari.....	4
Teshaboyev To‘lqin Zakirovich	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish.....	10
Masharipov Farrux O‘tkirovich	
Business intelligence systems and brand equity management in high education: a critical assessment through the ethical lens.....	18
Zufarova, Nozima Gulamiddinovna	
Mathematical modeling of corruption dynamics using numerical methods.....	23
Jabborov N.M., Eshdavlatova S.E.	
Xalqaro intellektual migratsiya sohasidagi zamonaviy tendensiyalar.....	32
Islamov Baxtiyor Anvarovich, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna, Gazieva Sulxiya Saidmashrafovna	
Оценка влияния кибербезопасности на финансовую устойчивость организаций: адаптация к растущим угрозам в современной экономике.....	41
Атания Зов Жасурбек Хамидович, Сулейманов Ильнур Радикович	
Yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilishning asosiy yo‘nalishlari.....	48
Otamuratov S.S.	
Система ключевых показателей эффективности труда: разработка и внедрение kpi на предприятиях.....	55
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна, Холматов Мухриддин Мумин угли	
Correlation analysis of the relationship between indicators of stability of the banking sector and macroeconomic indicators.....	62
Sharipova Nilufar Hikmatullayevna	
Factors determining liquidity management in commercial banks and a comparative analysis of emerging markets.....	68
Sattorova Nasiba Ganijon kizi	
Improvement of cost accounting at oil refineries in the republic of Uzbekistan.....	73
Makhkamova Saida Gayratovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali indeksini ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etish orqali rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Axmadaliyeva Niholaxon	
Economic integration of central asian countries: reality and prospects.....	85
Vokhidova Mehri Khasanovna, Abdulaziz Erkaboev Baxromovich	
Assessment of prospects for effective use of current assets in oil and gas industry enterprises and identification of alternative scenarios.....	90
Mavlyanova Dilobar Makhkamovna	
Influence of the volume of industrial production in Uzbekistan on the import trend.....	97
Sherzod Igamberdiyevich Mustafakulov, Khasan Sabirov, Talibjonov Khurshidbek	
Ways of developing branding process in higher educational institutions.....	106
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Comparative analysis of green finance initiatives: a global perspective.....	111
Melikuzieva Dilrabo, Khidirov Nodir	
Improving analytical and synthetic accounting of costs and output in animal husbandry.....	117
Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
Результат инвестиций в человеческий капитал в Узбекистане.....	125
Искандарова Дилафруз Икром кизи	
Korporativ tuzilmalarda korporativ madaniyatni tahlil qilish va baholash usullari.....	131
Sadikova Muslima Alisher qizi	
Unified use of cluster systems in improving the economic efficiency of regional tourism development.....	136
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Improvement of accounting of authorized capital at joint-stock companies.....	146
Ortikov Ergashjon Yakubboevich	

Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va savdo hajmining o'sishi: davlat siyosatining natijalari va imkoniyatlari.....	151
S.Turabov, Sh.Oybekov	
Raqamli biznesni kichik korxonalar faoliyatida rivojlanishi.....	156
Kambarova Shaxnozaxon Mirvohitovna	
The role of artificial intelligence in taking full advantage of the benefits in agriculture and the cultivation of medicinal plants.....	161
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
Principles and organization of dividend policy development in joint stock companies.....	165
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
Innovative and production development of regional grape clusters in the Republic of Uzbekistan.....	172
Saidakmal S. Kasimov, Muhitdinov Asror Akobirovich, G'ayratjon A. Alimov	
The value and advantages of artificial intelligence in foreign language teaching.....	177
Babayeva Komila Rishatovna	
Navigating the future of finance with digital currencies.....	181
Nimatullaev Khondamir Tursunboy ugli	
Sustainable practices in textile manufacturing: a shift towards eco-friendly marketing.....	186
Nosirova Charos	
Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat infratuzilmasini axborot tizimlari boshqarish usullari.....	192
A. Inyatov	
Davlat organlarida loyiha faoliyatini tashkil etishning xususiy sektordagi xususiyatlari.....	197
Irisqulova Munisa Akmal qizi, Sharipova Nigina Xamidbek qizi	
The impact of investment on economic growth: evidence from uzbekistan.....	202
Abdusalomov Marufjon Olimjon ogli, Toshbotirov Ulugbek Oktam ogli	
O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish.....	209
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, Mavlanova Nargiza Eshquziyevna	
Использование математических моделей в ии для разработки управленческих решений в электронной коммерции.....	216
Исохужаева Мунира Яшнаровна	
Jahonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari.....	221
O.X.Xamidov, A.J.Abdullayev, N.F.Odinayeva	
Современные методы инициирования и осуществления платежей в Узбекистане: тенденции и правовое регулирование.....	228
Гаипов Жасур Бахром угли	
Instruments for stimulating the increase of investment activity in the regions of Uzbekistan to achieve macroeconomic stability.....	235
Srozhiddinova Zarina Khayriddinovna, Babajanova Lola Shopulatovna	
Improvement of long-term assets grouping as a priority of accounting organization in seasonal organizations.....	246
Kholbekov Rasul Olimovich	
Пути совершенствования ведения статистики труда в Республике Узбекистан на основе зарубежного опыта.....	250
Таирова Алия	
Проблемы в сфере оказания коллекторских услуг в зарубежной практике и возможности их преодоления.....	258
Тулураганова Шахноза Самукджановна	
O'zbekiston va jahon sanoat iqtisodiyotining global muammolari va tendensiyalari.....	264
Yusupov Ulug'bek Mamayusovich	

JAHONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

O.X.Xamidov

i.i.f.d., professor, Buxoro davlat universiteti rektor

A.J.Abdullayev

**Iqtisodiyot kafedrası mudiri i.f.d., professor,
Buxoro davlat universiteti**

N.F.Odinayeva

**Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
i.f.f.d (PhD), Buxoro davlat universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon miqyosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari tahlil qilingan. Ta'lim sohasidagi global o'zgarishlar va innovatsion yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va ularning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Maqolada rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan boshqaruv modellari hamda ularning O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'lim xizmatlari bozori, oliy ta'lim muassasalari, universitet, institut, akademiya, oliy ta'lim muassasalarini boshqarish.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarish jarayonlarining klassik usullarining transformatsiyasi natijasida fan va innovatsiyalarga asoslangan boshqaruv modellari rivojlana boshladi. Bunda oliy ta'lim xizmatlari bozorining global darajada rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchi migratsiyasi, aqlning oqib o'tishi kabi jarayonlarning jadallashuvi bilan birga, universitetlarning xalqaro reyting ko'rsatkichlariga integratsiyalashuvining tobora chuqurlashishi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyotining transformatsiyasiga olib keldi.

Jahonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini takomillashtirishda ta'lim va ilmiy-tadqiqot sifatini yaxshilash, ilg'or bilimlarni yaratish, global o'zgarishlarga adaptatsiya qilish orqali global ta'lim bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Massachusetts universiteti, London fanlararo maktabi kabi oliy ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruvni amalga oshirish bo'yicha «Innovation Station» dasturi, Chalmer «Tracks», Moskva texnologik institutida esa «The New Engineering Education Transformation (NEET)» kabi boshqaruv dasturlari ishlab chiqilgan. Ushbu holat mahalliy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro oliy ta'lim bozoriga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirishda innovatsion boshqaruv amaliyotiga o'tish zaruriyatini uyg'otadi.

Tadqiqotning maqsadi jahondagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari asosida qiyosiy tahlil olib borish orqali ularni mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.¹³⁴ Ushbu holat mahalliy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro oliy ta'lim bozoriga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirishda innovatsion boshqaruv amaliyotiga o'tish zaruriyatini uyg'otadi.

Tadqiqotning maqsadi jahondagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellarini qiyosiy taqqoslash asosida ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

¹³⁴ Тенденции развития высшего образования в мире и России. Аналитический доклад-дайджест. Российский экономический университет имени Г.А. Плеханова; Научно-исследовательский институт развития образования. Москва -2021. – 199 с.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik G.N. Axunova, Sh.Sh. Zaxidova, N.R. Rahmonov, X.X. Rejapov, A.O. Ergashev, A.X.Eshboev, N.A. Qosimova¹³⁵ kabi iqtisodchi olimlar tomonidan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish, ko'rsatilayotgan oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirishga bag'ishlangan nazariy-amaliy masalalar tizimlashtirilgan va kompleks holda, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Shu o'rinda R.S. Turner¹³⁶ va P. Watson¹³⁷ Tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, 1815-yillarning boshlarigacha jahondagi, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hududida joylashgan etakchi oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyoti faqatgina talabalariga sifatli bilim berishga qaratilgan bo'lib, universitetlar bazalarida hech qanday ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. 1815-yilga kelib ilk bor Germaniyaning etakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Ushbu holat oliy ta'lim muassasalarining ta'lim berish jarayonlarini boshqaruvi amaliyoti akademik faoliyatni amalga oshirish bilan to'ldirilishiga olib keldi.

R.S. Turner fikricha, oliy ta'lim muassasalarining faqatgina ta'lim berishga qaratilgan boshqaruvi XVII asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib, mehnat bozoridagi kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyatining ortishi, raqobat kurashining kuchayib borishi natijasida o'z ahamiyatini asta-sekinlik bilan yo'qota boshladi. Natijada oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi. Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda, 1810-yildan boshlab Germaniyaning etakchi oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi jamiyat hayoti va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari kesimida ilmiy tadqiqotga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlashni boshladilar. 1815-yilga kelib, jahondagi etakchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaruvi amaliyoti ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonlarini qamrab olgan akademik boshqaruv komponentlari bilan to'ldirildi.¹³⁸

Tahlillarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyoti nafaqat mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishi, balki global tendensiyalarning o'zgarishi natijasida muntazam takomillashtirib borilishi talab etiladi. Iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish klassik (tarixiy) va zamonaviy modellari o'zaro farqlanadi.

E.V. Strogetskeya¹³⁹ Tomonidan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning quyidagi klassik modellari ajratib ko'rsatilgan:

Germaniya modeli – Gumboldt tadqiqot universiteti boshqaruvi amaliyotiga asoslangan bo'lib, bunda oliy ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarishda ilmiy tadqiqot va ta'lim berish jarayonlari o'zaro mutanosiblikda tashkil etilganligi bilan xarakterlanadi. Universitet faoliyatini boshqarishda talabalarining o'qishi bilan birga, ularning tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishlariga ustuvorlik qaratilgan. Jumladan, professor-o'qituvchilarni ishga yollashda ularning ta'lim berish imkoniyatlari bilan birga, ilmiy tadqiqotlar olib borish salohiyati ham inobatga olingan. Natijada Germaniya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat kuchayib, ko'rsatilayotgan oliy ta'lim xizmatlari sifati takomillashgan.

¹³⁵ Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш: и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати – Т., 2004. – Б. 45.; Захидова Ш.Ш. Олий таълим хизматлари бозорининг амал қилиш механизми самарадорлигини ошириш (Ўзбекистон материаллари мисолида). и.ф.н. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2012. – 23 б.; Рахмонов Н.Р. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш асосида олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш. и.ф.д. (DSс) диссертацияси автореферати – Тошкент – 2019. 42 б.; Режапов Х.Х. Олий таълим хизматлари ва меҳнат бозори ўртасидаги муносабатларни такомиллаштириш. и.ф.ф.д. (PhD) ... дисс. Автореферати. – Тошкент – 2020. 26 б.; Эргашев А.О. Таълим тизимининг иқтисодий бошқарув асосларини такомиллаштириш. (Ўзбекистон Республикаси ўрта – махсус, касб-хунар тизими мисолида): - и.ф.н...дис. Автореферати. – Тошкент:ТДТУ,2006. – 24 б.; Эшбоев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодиётни ривожлантиришга таъсири. и.ф.н. илм. дар. олиш ёзилган дис.автореферати. – Тошкент., 2008. – Б.8.; Касымова Н.А. Covid-19 и новый этап развития высшего образования. Олий таълим тараққиёти истиқболлари. Ўзбекистон Республикаси олий таълим экспертларининг илмий-методик журнали. № 8. 2020. 6. 15-24

¹³⁶ Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182

¹³⁷ Watson P. The German genius. Europe's third renaissance, the second scientific revolution, and the XX Century. L.: Simon & Schuster, 2010. 992 p.

¹³⁸ Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182

¹³⁹ Строецкая Е.В. В поисках модели современного университета // Высшее образование сегодня. – 2009. - № 3. – с. 15-17

Britaniya (Oksbridj) modeli – bu modelda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi bevosita muloqotga asoslangan bo'lib, universitetlar faoliyati internat shaklida tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Har bir talabaning ta'lim jarayonida tutorlarga birlashtirilishi ularning intellektual salohiyatini oshirishga ustuvorlik qaratilgan. Tutorlarga birlashtirilish ularga individual tartibda ish olib borish imkoniyatlarini kengaytirib, ko'rsatilayotgan oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish imkonini yaratgan.

Fransuz modeli – talabalarga "meritokratik" jamiyat ruhida ta'lim-tarbiya berish asosida ularning o'zlarini boshqaruv elitasi sifatida his qilishlariga ustuvorlik qaratilgan. Bunda katta universitetlari "katta maktab" shaklida o'ziga xos muhitni yaratgan. Natijada jamiyat a'zolari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining statusi yuqori baholangan.

Chikago modeli – gumanitar ta'lim yo'nalishidagi universitetlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan.

G. Kryuken va F. Meyerning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 1980-yillarga kelib, universitetlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruv amaliyotiga o'tishga ustuvorlik berilgan. Ularning fikricha, bu borada jahonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini takomillashtirishda quyidagi modellarning o'zaro farqlanishi kuzatiladi:¹⁴⁰

- **Markazlashgan boshqaruv modeli** – bu modelda oliy ta'lim muassasalari faoliyati iyerarxik hokimiyat munosabatlari shaklida tegishli davlat tashkilotlari orqali hukumat tomonidan boshqarilgan. Ushbu modelda oliy ta'lim muassasalari faoliyati to'liq davlat tomonidan boshqarilib, ta'lim standartlari, o'qitish shakli va to'lov-shartnoma miqdori, qabul kvotasi kabi universitetlar faoliyati bilan bevosita bog'liq jarayonlar to'liq hukumat tomonidan belgilangan va nazorat qilingan. Bu turdagi boshqaruv amaliyoti universitetlarning raqobatbardoshligi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori bo'lib, xalqaro reyting ko'rsatkichlaridagi o'rnini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

- **Shartnomaviy (Deal up) boshqaruv modeli** – bu modelda oliy ta'lim muassasalari ta'lim berish faoliyati ularning mavjud ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari yoki ixtisosliklari bo'yicha milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga birlashtirilib, tarmoqning tarkibiy qismi sifatida tashkil etiladi va vakolatlar dinamik ravishda taqsimlanadi.

- **Raqobatbardosh universitet modeli** – bu modelda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy va akademik sohadagi mustaqilligi ta'minlanib, ularni boshqarish amaliyoti bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan to'liq to'yintiriladi. Universitetlar o'z faoliyati samaradorligini oshirish va oliy ta'lim xizmatlari bozorida o'rnini mustahkamlashdan o'zlari yuqori darajada manfaatdor bo'ladi. Mazkur model asosida mamlakatda oliy ta'lim xizmatlari bozorini jadallik bilan rivojlantirishga erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduktiv yoki induktiv usullardan foydalanish samara beradigan bo'lsa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashtirish davrida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning samarali modellarini yaratish jahon hamjamiyati oldidagi muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi nafaqat ta'lim berish va ilmiy izlanishlar olib borishga qaratilgan, balki mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralmoqda. Shu sababli, jahonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvining zamonaviy modellari ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion yondashuvlardan foydalanish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini samarali boshqarish uchun jahon tajribasidan o'rganish va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, rivojlangan davlatlardagi innovatsion boshqaruv modellarini o'rganish va ularning ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi mavjud muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada jahondagi oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv modellari, ularning afzalliklari va O'zbekiston uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

¹⁴⁰ Krucken G., Meier F. Turning the university into an organizational actor // Globalization a. organization: World society a. organizational change / G. Drori, J. Meyer, H. Hwang (eds). Oxford Univ. Press, 2006. P. 241-257

Adabiyot sharhi qismiga tayangan holda, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda tarmoq va fundamental rivojlanish modellarini farqlash mumkin. Tarmoq universiteti bozor talablarini e'tiborga olgan holda, amaliy bilimlarni taqdim etadi. Fundamental universitet esa fizika, kimyo, biologiya, kompyuter texnologiyalari kabi fundamental bilim sohalarida kadrlarni o'qitishni ta'minlaydi. Ular tarkibiga davlatning klassik universitetlari va texnik universitetlari kiradi. Jahon amaliyotida universitetlarning boshqa modellari ham mavjud:

- Universitet – oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasb-hunar ta'limi dasturlarini keng doirada amalga oshiradi; yuqori malakali ishchilar, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi; fanlarning keng doirasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib boradi; o'z faoliyat yuritadigan sohaning etakchi ilmiy va uslubiy markazidir;

- Akademiya – oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'limning o'quv dasturlarini amalga oshiradi; fan yoki madaniyat sohalaridan birida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi; o'z faoliyatining etakchi ilmiy va uslubiy markazidir;

- Institut – oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'limning o'quv dasturlarini amalga oshiradi; kasbiy faoliyatning ma'lum bir sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi; fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish modellarining xilma-xilligi, o'ziga xos xususiyatlari – o'quv dasturlari, moddiy va moliyaviy imkoniyatlari va geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari o'zlarining strategik rivojlanishida raqobatbardoshlik imkoniyatlarini aynan noyob raqobatbardoshlik afzalliklari asosida amalga oshirishi mumkin(1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHOTT) mamlakatlaridagi milliy oliy ta'lim tizimlari¹⁴¹

Oliy ta'lim tizimining parametrlari	Turli mamlakatlarda amalga oshirilishi
OTMlar soni	Avstraliya va Irlandiya, Gollandiya va Shvesiyadagi 40-65 universitetlardan; Angliyada 130, Germaniya da 350 va Yaponiya da 1290, AQShda 4000 tagacha.
Oliy ta'limni boshqarish tuzilmasi	Germaniya, Avstraliya va AQShda federal tizimlar. Buyuk Britaniya va Irlandiyada milliy tizimlarni moliyalashtirish "bufer" tashkilotlar – vositachilar orqali amalga oshiriladi.
OTMlar tipologiyasi	Tadqiqot universitetlari o'zlarining o'rni va munosabatlari bo'yicha kasbiy yoki texnik o'quv yurtlaridan (Irlandiya, Gollandiya, Germaniya) farq qilishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda mavjud, hamda Yaponiya va AQShda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiy universitetlar alohida ta'kidlanadi.
Institutsional avtonomiya darajasi	Barcha oliy o'quv yurtlari akademik qarorlar qabul qilish va ilmiy yo'nalishlarini tanlashda avtonom hisoblanib, ularning moliyaviy va boshqaruv sohasida qarorlar qabul qilish darajasida katta farqlar mavjud: - davlat bilan shartnoma asosida ishlaydigan xususiy universitetlar; - davlat tashkilotlari bo'lgan universitetlar hukumat tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ta'lim sifatini ta'minlashga ustuvorlik qaratilmoqda. Turli mamlakatlarda amal qiladigan ta'lim sifatini ta'minlashning milliy tizimlari quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- hukumatning vakolatlari;
- jamoat, mutasaddi organlar va oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki darajasi;
- maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- mezonlar va tartiblar.

Turli mamlakatlardagi milliy ta'lim sifati tizimidagi tafovutlar (1-jadvalga qarang), ularni boshqarish va o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillari davlatlarning institutsional va madaniy an'analari (ona tili, tarixi, madaniyati va h.k.) bilan bog'liq.

¹⁴¹ On the edge: securing a sustainable future for higher education. Report of the OECD/IMHE-HEFCE project on financial management and governance of higher education institutions, OECD, 2004, p. 8.

Tahlillarga ko'ra, jahonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning «Fransuz», «Kontinental», «Anglo-Sakson», «Atlantika» va «AQSh» modellarining o'zaro farqlanishi kuzatiladi.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning **«Fransuz» modeli** Germaniya, Fransiya, Skandinaviya davlatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya va Yevropa oliy ta'lim an'alarini qabul qilgan MDH mamlakatlarida qo'llaniladi. Ularning ta'lim tizimlari **«Kontinental»** oliy ta'limni boshqarish modeli asosida qurilgan va quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi:

- oliy ta'limni rivojlantirishni tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan markazlashtirilgan nazorat orqali davlatning oliy ta'lim muassasalariga nisbatan paternalizmi (Ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va boshqalar);

- moliyaviy (akademik) ta'lim muassasalarining cheklangan avtonomiyasi;
- universitet ta'limiga kirishning qat'iy tabaqalanmagan tizimi (odatda bepul);
- davlat mulkining ta'limda ustunligi.

Bu modelda universitetlarda davlatning ta'siri yuqori bo'lib, ta'lim sifatini ta'minlashda markazlashtirilgan nazorat orqali boshqaruv amalga oshiriladi¹⁴².

«Fransuz» modelida universitetning ichki o'zini-o'zi nazorat qilishi nominal qiymatga ega bo'lib, asosiy e'tibor davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari tomonidan universitetni samarali tashqi baholashga qaratiladi.

Oliy ta'limning sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning **«Anglo-Sakson» modeli** Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSh, Lotin Amerikasi, Filippin, Tayvan kabi davlatlarda qabul qilingan. Ushbu ta'lim tizimi oliy ta'limni boshqarishning **«Atlantika» modeli** asosida qurilgan va quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- oliy o'quv yurtlarining mustaqilligi (davlat ahamiyatiga ega bo'lmagan yoki Yevropa nuqtai nazaridan universitet strategiyasiga liberal yondashuv);

- oliy o'quv yurtlarining avtonomiyasining yuqori darajasi, akademik erkinlik darajasi esa har bir universitetning moliyaviy va imijiy asoslari bilan belgilanadi;

- pullik asosda oliy ma'lumot olish;
- ta'limda xususiy mulkning salmoqli ulushi.

Bu modelda universitetlar o'z ichki faoliyatlarini mustaqil boshqaradi va tashqi baholash ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'ladi¹⁴³.

Ushbu modelda birinchi o'rinda oliy o'quv yurtlarining ichki o'zini-o'zi baholashi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ichki tahlilga yo'naltirilgan ta'lim sifatining tashqi professional yoki jamoat ekspert bahosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning **«Anglo-Sakson» va «Fransuz» modellarining** g'oyalari muvaffaqiyatli kombinatsiyasi hisoblangan ta'lim muassasalari va ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish orqali ta'lim sifatini ta'minlashning **«AQSh» modeli** ajratib ko'rsatiladi.

AQSh universitetlarida o'zini-o'zi baholash tizimi rivojlangan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari davlat idoralari tomonidan tartibga solinadigan mamlakatlardan farqli o'laroq, Amerika oliy ta'lim tizimi asosan ta'lim muassasalarining o'zlari tomonidan nazorat qilinadi. Universitetlarni akkreditatsiya qilish jarayoni universitetlar va kollejlarning mintaqaviy birlashmalari va uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu birlashmalarning mintaqada akkreditatsiyadan o'tkazuvchi maxsus oliy ta'lim komissiyalari faoliyat yuritadi.

AQShdagi oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish ta'lim muassasalarining akademik erkinlik huquqlari va ularning davlat hamda jamiyat oldidagi javobgarligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun kollektiv o'zini-o'zi boshqarish tizimi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Amerika o'zini-o'zi boshqarish tizimining markazida ta'lim muassasasi darajasida o'tkazilgan baholash orqali ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadi yotadi.

Oliy ta'lim muassasalarining o'zlari tomonidan tashkil etilgan sifatni ta'minlash tizimlari o'zini-o'zi boshqarishning ilg'or shakllari hisoblanadi. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining konseptual sxemasini, strategiyasi, baholash dasturini, o'z metodologiyasi va maqsadlariga muvofiq amalga oshirish rejasini ishlab chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, oliy ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning Yevropa yondashuvi davlatning etakchi mavqega egaligi va nazorat qilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun Yevropada oliy ta'lim

¹⁴² Высшее образование в глобализованном обществе. Установочный документ ЮНЕСКО по образованию. ЮНЕСКО. Франция, 2004. – 32 с. <http://unesdoc.unesco.org/images/0013/001362/136247r.pdf>

¹⁴³ Высшее образование в глобализованном обществе. Установочный документ ЮНЕСКО по образованию. ЮНЕСКО. Франция, 2004. – 32 с. <http://unesdoc.unesco.org/images/0013/001362/136247r.pdf>

sifatining ahamiyati, uning baholanishi va ta'minlanishi AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda keyinroq tan olingan. Barcha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari oliy ta'limning sifati va rivojlanishini oliy ta'lim muassasalarida samarali menejmentni tashkil etish orqali boshqarishga, qarorlarni qabul qilish vakolati va javobgarligini bosqichma-bosqich berishga harakat qiladilar. Bu maqsad hukumat va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi vositachilik funksiyalarini bajaraydigan tuzilmalarning shakllanishi va rivojlanishi, barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat, biznes, ma'muriyat, mahalliy hamjamiyat, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida vakolatlar va javobgarlik sohaslarini taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Oliy ta'limda yangi universitet ma'muriyatining shakllanishi va yangi ma'muriyat – agentliklar xodimlari – vositachilarning paydo bo'lishi, ularning bilimi, malakasi, o'qituvchilar, davlat amaldorlari va biznes menejerlaridan tubdan farq qilishi kuzatiladi.

Bolonya jarayoni oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonida ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va uning doirasida oliy ta'lim sifatini ta'minlashning yangi modeli taklif etiladi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlashning ba'zi elementlari Yevropaning Niderlandiya, Fransiya, Shvetsiya, Daniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarida samarali faoliyat ko'rsatayotgan milliy sifatni ta'minlash tizimlari mavjud. Yevropada bunday ta'lim tizimlarini yaratish bo'yicha boy an'analar va katta tajriba mavjud.

«Bolonya» modeli uchun quyidagi tamoyillar xos hisoblanadi:

- davlat tuzilmalaridan mustaqil ravishda ta'limni boshqarish milliy instituti, universitetlar va oliy ta'limni baholash idoralarini qisqartirish;

- sifatni baholash va ta'minlash uchun maqbul mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

- OTMlarning baholash jarayonida to'liq ishtirok etishlari;

- tashqi audit xulosasi bilan qiyosiy taqqoslaganda o'zini-o'zi baholash to'g'risidagi hisobotni tahlil qilish uchun ushbu tartibni o'zgartirish.

Hozirda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining aksariyat a'zo mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha o'z tizimlari mavjud bo'lib, tegishli yondashuv va uslublar ishlab chiqilgan. Davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash javobgarligini o'z zimmasiga olgan mamlakatlarda turli baholash organlari tuzilgan. Boshqa mamlakatlarda baholash sohasidagi faoliyatning tashabbuskori universitetlarning o'zlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyoti uzoq yillar mobaynida rivojlanib, globallashtirish jarayonlari, mamlakat iqtisodiyotidagi tendensiyalar o'zgarishi natijasida muntazam ravishda takomillashib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan to'ldirish bilan birgalikda, xalqaro oliy ta'lim xizmatlari bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Krucken G., Meier F. Turning the university into an organizational actor // Globalization and organization: World society and organizational change / G. Drori, J. Meyer, H. Hwang (eds). Oxford Univ. Press, 2006. P. 241-257.

2. On the edge: securing a sustainable future for higher education. Report of the OECD/IMHE-HEFCE project on financial management and governance of higher education institutions, OECD, 2004, p. 8.

3. Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182.

4. Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182.

5. Watson P. The German genius. Europe's third renaissance, the second scientific revolution, and the XX Century. L.: Simon & Schuster, 2010. 992 p.

6. Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати – Т., 2004. – Б. 45.

7. Высшее образование в глобализованном обществе. Установочный документ ЮНЕСКО по образованию. ЮНЕСКО. Франция, 2004. – 32 с.
<http://unesdoc.unesco.org/images/0013/001362/136247r.pdf>

8. Геворкян Е.Н., Мотова Г.Н. Болонский процесс и сотрудничество в области обеспечения качества образования: опыт Российской Федерации. // Вопросы образования, 2004. №4 – С. 150-165.

9. Екшикеев Т.К. Конкурентоспособность и конкурентные преимущества ВУЗа / Проблемы современной экономики, № 4 (32). 2009. – С. 392-396.
10. Захидова Ш.Ш. Олий таълим хизматлари бозорининг амал қилиш механизми самарадорлигини ошириш (Ўзбекистон материаллари мисолида). и.ф.н.... дисс. автореферати. – Тошкент, 2012. – 23 б.
11. Қосимова Н.А. Covid-19 ва янги босқичдаги олий таълим тараққиёти. Олий таълим тараққиёти истикболлари. Ўзбекистон Республикаси олий таълим экспертларининг илмий-методик журнали. № 8. 2020. Б. 15-24.
12. Маасен П. Парадокс в управлении университетом. Современный университет между глобальными вызовами и локальными задачами. VII Международная конференция Российской Ассоциатсии исследователей высшего образования: сб. материалов. Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики», Ин-т образования. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2016. С. 30-41.
13. Раҳмонов Н.Р. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш асосида олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш. и.ф.д. (DSc) диссертацияси автореферати – Тошкент, 2019. 42 б.
14. Режапов Х.Х. Олий таълим хизматлари ва меҳнат бозори ўртасидаги муносабатларни такомиллаштириш. и.ф.ф.д. (PhD)... дисс. Автореферати. – Тошкент, 2020. 26 б.
15. Строгеецкая Е.В. В поисках модели современного университета // Высшее образование сегодня. – 2009. - № 3. – С. 15-17.
16. Тенденции развития высшего образования в мире и России. Аналитический доклад-дайджест. Российский экономический университет имени Г.А. Плеханова; Научно-исследовательский институт развития образования. Москва, 2021. – 199 с.
17. Эргашев А.О. Таълим тизимининг иқтисодий бошқарув асосларини такомиллаштириш. (Ўзбекистон Республикаси ўрта-маҳсус, касб-хунар тизими мисолида): и.ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент: ТДТУ, 2006. – 24 б.
18. Эшбоев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодиётни ривожлантиришга таъсири. и.ф.н. илмий даража олиш учун ёзилган дис. автореферати. – Тошкент, 2008. – Б. 8.

